

**“Navoiy viloyati Nurota tumanidagi “Sentobsoy” sel-suv ombori elektr ta’minotini ta’minlash” ob’ekti  
bo’yicha tuzilgan**

2 - sonli shartnoma

“ 15 ” сентябр 2022 yil

Navoiy sh.

«Navbahormaxsusudrat» MChJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi rahbari **M.Hazratova** bir tomondan (bundan buyon matnda “Bajaruvchi” deb yuritiladi) hamda **Navoiy viloyati suv omborlari va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmasi** nomidan nizom asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig’i **I.S.Raupov**, ikkinchi tomondan (bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdik:

**I. ShARTNOMA PRYeDMYeTI**

1.1. “Bajaruvchi” ushbu Shartnoma ilovasida ko’rsatilgan spetsifikatsiyaga muvofiq **Navoiy viloyati Nurota tumanidagi “Sentobsoy” sel-suv ombori elektr ta’minotini ta’minlash** ishlarini bajarish majburiyatini oladi, “Buyurtmachi” ushbu xizmatlarni va tovarlarni qabul qilish va haqini to’lash majburiyatini oladi. Ko’rsatiladigan xizmatlarning qat’iy turlari, miqdori va bahosi ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo’lgan spetsifikatsiyada keltiriladi.

**II. TOMONLARNING HUQUKLARI VA MAJBURIYATLARI**

2.1. Buyurtmachining xuquqlari:

- bajaruvchidan texnik shartlarga lozim darajadagi xizmatlarni ko’rsatishni talab qilish;
- lozim darajadagi sifatda xizmat ko’rsatilmagan taqdirda, o’z xohishiga ko’ra quyidagilarni talab qilish:
- kamchiliklarni bepul bartaraf etish yoki Buyurtmachining yoki uchinchi shaxsning kamchiliklarni bartaraf etishga doir xarajatlarini qoplash;
- bahosini mutanosib ravishda pasaytirish;
- shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

2.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ko’rsatilgan xizmatlarni qabul qilish;
- ushbu Shartnomaning 3.1 va 3.2-bandlariga muvofiq ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lovlarni amalga oshirish.

2.3. Bajaruvchining huquqlari:

- buyurtmachidan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va hajmda ko’rsatilgan xizmatlar uchun oldindan to’lov va yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qilish;
- buyurtmachidan bajarilgan ishni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

2.4. Bajaruvchining majburiyatlari:

- ushbu shartnomaga muvofiq yoki Buyurtmachining ushbu shartnomaning 4.8-bandida belgilangan tartibda u tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqqa binoan xizmatlarni belgilangan muddat, miqdor va sifatlar bo’yicha ko’rsatish;
- agar xizmat ko’rsatish jarayonida Bajaruvchi shartnoma shartlaridan va texnik shartlardan chetga chiqsa, Buyurtmachining talabiga binoan uch kun ichida aniqlangan barcha kamchiliklarni bepul bartaraf etish.

**III. ShARTNOMA BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

3.1. Ushbu shartnomaning bahosi 40 955 500 (Qirq million to’qqiz yuz ellik besh ming besh yuz) so’m, QQS bilan.

3.2. Buyurtmachi taqdim etiladigan xizmatning 30 foizi miqdorida oldindan to’lovni amalga oshiradi va mablag’ Bajaruvchining hisobraqamiga kelib tushgan sanadan boshlab ushbu shartnomaning majburiyatlari bajarilishi boshlanadi.

Ko’rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobning qolgan qismi bajarilgan ishlar to’g’risidagi dalolatnoma imzolanganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

3.3. Xizmatlar bo’yicha hisob-kitoblar bank o’tkazmasi orqali Bajaruvchining hisob raqamiga o’tkazish yo’li bilan amalga oshiriladi.

**IV. ShARTNOMANI BAJARISH**

4.1. Shartnoma shartlari ushbu shartnoma va qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar tomonlar o’z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlagan bo’lsa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.



4.2. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi sanasi hisobvaraƒ-faktura tuzilgan kun deb hisoblanadi.

G'aznachilik shtampida ko'rsatilgan sana Buyurtmachining xizmatlar uchun to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini bajaradigan kun hisoblanadi.

4.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan oldin taqdim etilishi mumkin.

4.5. Buyurtmachi belgilangan muddatlarni buzgan holda ko'rsatilgan xizmatni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.6. Belgilangan miqdordan ortiq bitta nomdagi xizmatni ko'rsatish xuddi shu texnik topshiriƒqa kiritilgan boshqa nomdagi xizmatning kamchiliklarini to'ldirish deb hisoblanmaydi, kamchiliklar to'ldirilishi lozim, Buyurtmachining oldindan yozma roziligi bilan amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno.

4.7. Ko'rsatilayotgan xizmat to'g'ridan-to'g'ri Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi, ularning sifati ko'rsatilgan hisobvaraƒ-faktura bo'yicha qabul qilinadi.

Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ushbu shartnomaga muvofiq yoki ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda va hajmlarda amalga oshiriladi.

Buyurtma bevosita (qo'lda), pochta orqali yoki boshqa usul bilan xizmatlarni ko'rsatish nazarda tutilayotgan sana boshlanishidan besh kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Buyurtma bevosita (qo'lda) qabul qilganda, Bajaruvchining xodimi Buyurtmachida qoladigan buyurtma nusxasida qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8. Buyurtmachi ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoki xizmatlarning tegishli qismini ko'rsatish sanasini Bajaruvchini buyurtmada ko'rsatilgan sanadan kamida bir kun oldin xabar bergan holda o'zgartirishga haqli.

4.9. Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan 30 % oldindan to'lovni amalga oshirgandan so'ng shartnomada ko'rsatilgan ishlarni 30 kun muddatda yakunlab topshirishi shart.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati, miqdori, ularning bahosi Bajaruvchi tomonidan noto'g'ri belgilanganlik holati aniqlangan taqdirda, Bajaruvchi taqdim etilayotgan xizmatlarning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi va ushbu hisoblangan summaga qo'shimcha ravishda mijozga noto'g'ri hisoblangan summaning 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati shartnomada ko'rsatilgan texnik va boshqa shartlarning talablariga javob bermasa, aybdor tomon taqdim etilgan sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar bahosining 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.3. Jarima va penyadan tashqari, Bajaruvchi Buyurtmachiga xizmatlarni taqdim etmaslik natijasida etkazilgan zararni qoplaydi.

5.4. Xizmatlar kechiktirilgan yoki ko'rsatilmagan taqdirda, Bajaruvchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani to'g'ri bajarishdan va xizmatlarni kechiktirish yoki ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, Buyurtmachi Bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.6. Buyurtmachi shartnomaning tegishli shartini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilganda, tegishli harakat (harakatsizlik) natijasida Buyurtmachi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) yuzasidan Bajaruvchining javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.

Buyurtmachining Bajaruvchi aybi bilan shartnomani bajarmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) natijasida yetkazilgan zarar, belgilangan tartibda Bajaruvchi tomonidan qoplanadi.

5.7. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Tomonlar o'rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqadigan nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

6.2. Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan nizolar iqtisodiy sudida hal qilinadi.

## VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Agar ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng, ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarning biron bir tomonini to'liq yoki qisman to'g'ri bajarishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa va agar bunday holatlar,



ya'ni yong'in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, eksport yoki importga to'siqlar yoki embargolar, urush, jangovar harakatlar, terroristik harakatlar, ish tashlashlar (tomonlar ishchilarining ish tashlashlaridan tashqari), pandemiya, amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan umumiy xarakterdagi qarorlar tomonlarning shartnoma shartlarini bajarishiga bevosita ta'sir qilsa, tegishli majburiyatlarning bajarilishi vaqti bunday holatlar bartaraf etilgan vaqtga yoki ularning oqibatlari tugashi vaqtiga ko'chiriladi.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, ushbu holat haqida shuningdek, holatning taxminiy davomiyligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda 7 (etti) kun ichida xabardor qilishi shart. Agar yuqorida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, yengib bo'lmas kuch ta'sirida zarar yetkazilgan Tomon ushbu holatlarni asos qilib ololmaydi.

7.3. Xabarnomada ko'rsatilgan faktlar rasmiy manbalar tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, shu jumladan, press-revizlar, biroq ular bilan cheklanmaslik lozim. Bunday xabarnomaning yo'qligi, shuningdek tegishli dalillarning yo'qligi ushbu tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishiga asos sifatida yuqoridagi holatlarni keltirish huquqidan mahrum qiladi.

7.4. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar zudlik bilan o'zaro muzokaralar olib boradilar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoki bartaraf etish maqsadida ko'riladigan choralar to'g'risida kelishib oladilar.

7.5. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sinlik qiladigan bo'lsa, tomonlarning har biri boshqa tomonga ushbu shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 10 (o'n) ish kuni oldin yozma ravishda xabar yuborganidan keyin ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda tomonlarning hech biri boshqa tomondan fors-major holatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. Shuningdek, Bajaruvchi bajarilmagan majburiyatlari uchun Buyurtmachidan olingan barcha to'lovlarni Buyurtmachiga qaytaradi va Buyurtmachi Bajaruvchining bajarilgan barcha majburiyatlarini to'liq to'laydi.

## VIII. KORRUPSIYA GA QARSHI KURASH

8.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

8.2. Ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

8.3. Ushbu Shartnoma Tomonlarining har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

Xodimning uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish;
- har qanday kafolatlar bilan ta'minlash;
- amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish;
- xodim tomonidan o'z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

8.4. Agar Tomonlardan biri mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomadan so'ng, tegishli Tomon ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini buzilish sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi tasdiqlangunga qadar to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

8.5. Yozma xabarnomada Tomon kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

8.6. Shartnomaning taraflari korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Tomonlar korrupsiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Tomonlar



korruptsiyaviy faoliyatga Tomonlarning ishtiroki xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish tartibi taomillarini amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

8.7. Tomonlar o'zlarining sodir etilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchliligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishigacha bo'lgan noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

8.8. Tomonlar maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu Shartnomani bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo'yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni qo'llashni kafolatlaydilar.

8.9. Tomonlar ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan Tomon uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tomonning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

#### IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab tegishli g'aznachilik boshqarmalaridan ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ushbu shartnomaning barcha shartlari bajarilganda va hisob-kitoblar to'liq amalga oshirilganda tugaydi.

#### X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu Shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan yoki Tomonlardan birining talabiga binoan, boshqa tomon tomonidan shartnoma shartlari sezilarli darajada buzilgan taqdirda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

10.2. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va taraflarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.

10.3. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

10.4. Ushbu shartnoma, unga kiritilgan o'zgartirishlar (qo'shimchalar) tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab oshiriladi.

#### XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

Bajaruvchi:

«Navbahormaxsusudrat» MChJ  
Navbahor tumani "O'zbekiston" MFY  
tel. 91-249-00-91


h/r: 2020 8000 3003 9870 2001  
Navoiy sh., TIF Milliy bank Navoi b.  
MFO: 00196 INN: 303046991

  
M. Hazratova

Buyurtmachi:

Navoiy viloyati SO va YGIFB  
Navoiy shahar Nizomiy 24 uy  
h/r: 100 021 860 124 017 042 402 170 016  
Bank rekvizitlari: Markaziy bank Toshkent sh  
MFO: 00014  
INN: 305694763

  
I.S. Raupov

Бон юрискому  
Иламарохилов П.И. 

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 145999 на приобретение Навоий вилояти "Сентобсой" сел-сув омбори электр таъминотини таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 12.09.2022

Время рассмотрения 12.09.2022 09:14

Конкурсная комиссия Навоий вилояти Сув омборлари ва Йирик Гедротехник Иншоотлардан фойдаланиш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RAUPOV ISKANDAR SAMATOVICH	бошқарма бошлиғи	раиси
Секретарь комиссии	SHOMURODOV NODIRJON NAMOZOVICH	Ишлаб чиқариш ва таъминот буйича бош муҳандис	Навоий СО ва ЙГИФБ
Член комиссии	SAMATOV HASAN ISKANDAR O'G'LI	bosh gidrolok	azo
Член комиссии	SALIYEV NODIR ABDIQAXOROVICH	Техника ва ёнғин хавфсизлигини ташкил этиш бўйича 1-тоифали муҳандис	Навоий вилояти сув омборлари ва йирик гидротехника иншоотларидан фойдаланиш бошқармаси
Член комиссии	HAMROYEV MIRZOBEK RIZOQUL O'G'LI	material texnik taminotchi	azosi
Член комиссии	ADIZOV SANJAR HUSANOVICH	Бош ҳисобчи	Навоий вилояти сув омборлари ва йирик гидротехника иншоотларидан фойдаланиш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 12.09.2022 года № лота 145999.

Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту трансформатора
Подробное описание	Навоий вилояти "Сентобсой" сел-сув омбори электр таъминотини таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	41 706 939.00
Стартовая сумма	41 706 939.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Молиявий барқарорлиги



Тип: Текстовое значение

Описание: Молиявий барқарорлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVBAHOR MAXSUS PUDRAT МЧЖ	40	такдим этилди	30	Экспертная		
BAKHODIR-XO'JA XK	40	такдим этилди	20	Экспертная		

Критерий №2 Шунга ухшаш объектлар бажарганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Шунга ухшаш объектлар бажарганлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVBAHOR MAXSUS PUDRAT МЧЖ	20	Илова килинди	15	Экспертная		
BAKHODIR-XO'JA XK	20	Илова килинди	15	Экспертная		

Критерий №3 Бажариладиган ишлар буйича мутахассислар билан таъминланганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Бажариладиган ишлар буйича мутахассислар билан таъминланганлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVBAHOR MAXSUS PUDRAT МЧЖ	40	Илова килинди	30	Экспертная		
BAKHODIR-XO'JA XK	40	Илова килинди	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
BAKHODIR-XO'JA XK	41 706 939.00	41 500 999.00 UZS	41 500 999.00	00.00	41 500 999.00	08.09.2022 12:28:12	98.68558
NAVBAHOR MAXSUS PUDRAT МЧЖ	41 706 939.00	40 955 500.00 UZS	40 955 500.00	00.00	40 955 500.00	08.09.2022 12:20:56	100

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
BAKHODIR-XO'JA XK	Прошел	98.68558	98.68558
NAVBAHOR MAXSUS PUDRAT MЧЖ	Прошел	100	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 145999 от 12.09.2022 года на приобретение Навоий вилояти "Сентобсой" сел-сув омбори электр таъминотини таъмирлаш определила победителем:

NAVBAHOR MAXSUS PUDRAT MЧЖ  
303046991

и резервный исполнитель: BAKHODIR-XO'JA XK (305541834)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	RAUPOV ISKANDAR SAMATOVICH	Согласен	
Член комиссии	SAMATOV HASAN ISKANDAR O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	SALIYEV NODIR ABDIQAXOROVICH	Согласен	
Член комиссии	HAMROYEV MIRZOBEK RIZOQUL O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	ADIZOV SANJAR HUSANOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП